

**O‘zbekistonda ilk bor XVJ va Jahon
banki tomonidan o‘tkazilgan Moliyaviy
sektorni baholash dasturi (FSAP)
natijalari to‘g‘risida**



Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) haqida ma'lumot

FSAP dasturi

- Mamlakatlar moliyaviy barqarorligini kompleks baholash maqsadida **1999-yilda** joriy qilingan
- **XVJ** va **Jahon** banki tomonidan birgalikda o'tkaziladigan **qo'shma dastur**
- **157 ta** mamlakat kamida bir marotaba baholashdan o'tgan
- **47 ta** davlat har 5 yoki 10 yilda majburiy baholashdan o'tadi (*qolgan mamlakatlar so'rov asosida*)
- O'zbekiston 2024-2025-yillarda **ilk marotaba** baholashdan o'tdi

FSAP dasturi asosida baholash



4 marta



3 marta



2 marta

Baholash doirasida qamrab olinadigan umumiy masalalar



Makromoliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi xatarlar



Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va tizimli xatarlarni bartaraf etish



Institutsional salohiyat va moliyaviy infratuzilma



Bank-moliya sektoridagi xatarlar va ularni boshqarish



Normativ-huquqiy bazaning xalqaro standartlarga muvofiqligi



Moliyaviy ommaboplik va boshqalar

FSAP doirasida baholashdan o'tishning ahamiyati

Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash



Tizimli xatarlar aniqlanadi hamda ularni kamaytirish yuzasidan tavsiyalar beriladi



Bank-moliya tizimida **xalqaro standartlar** joriy qilinishi jadallashtiriladi



FSAP tavsiyalari bank-moliya tizimi **kelgusi islohotlar rejasini** ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi

Xalqaro ishonch va investitsion jozibadorlikni oshirish



Mamlakat moliyaviy barqarorligiga oid ochiqlik va hisobdorlik ta'minlanishi natijasida xalqaro hamjamiyatning **ishonchi ortadi**



Dastur natijalari asosida islohotlar bank-moliya tizimining investitsion **jozibadorligini oshiradi**



Xalqaro kapital va pul bozorlarida qulayroq shartlarda **mablag' jalb qilish** imkoniyatlari kengayadi

FSAP dasturiga tayyorgarlik doirasida banklarni tartibga solish sohasidagi islohotlar (2019-2025 yy.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5992-son Farmoniga muvofiq FSAP dasturi doirasida baholash o‘tkazilishi choralarini ko‘rish belgilangan.



Bozorga kirish

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunlar, banklarni litsenziyalashga oid hujjatlar



Nazoratni kuchaytirish

Markaziy bankning **normativ-huquqiy hujjatlari:** korporativ boshqaruv, ichki audit, tashqi audit, prudensial normativlar va boshqa hujjatlar



Ta’sir choralarini ko‘rish

Chora va sanksiyalarni qo‘llash hamda **tavakkalchilikka asoslangan nazoratni** joriy qilishga oid hujjatlar



Bozordan chiqish

Banklarni **sanatsiya qilish** va **tugatish** hamda banklardagi **omonatlar himoyasini kafolatlashga** oid hujjatlar

Moliyaviy sektorni baholash dasturi doirasida baholangan yo'nalishlar

Asosiy baholangan yo'nalishlar

Bank-moliya tizimining **9 ta yo'nalishi** qamrab olindi.




- Banklarni nazorat qilish va tartibga solish
- Muammoli aktivlar bilan ishlash
- Inqirozlarni boshqarish
- Makroprudensial siyosat
- Tizimli xatarlar va stress-testlash
- To'lov tizimlari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
**IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI**


- Davlatning moliya sektoridagi o'rni
- Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash



- Kapital va sug'urta bozorlari

Bazel qo'mitasi tamoyillariga muvofiqlik

O'zbekistonda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimi Bazel qo'mitasining Samarali bank nazorati bo'yicha **29 ta asosiy tamoyilidan 4 tasiga "muvofiq"** va **16 tasiga "sezilarli muvofiq"** deb baholandi.



Bank-moliya sohasida amalga oshirilgan ijobiy islohotlar



“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi (2019 y.) yangidan qabul qilingan qonunlar bank tizimi barqarorligini mustahkamlagan



Omonatlarni kafolatlash hamda banklarni sanatsiya qilish va tugatishga oid qonunlarning qabul qilinishi moliyaviy xavfsizlik tizimini mustahkamlagan



Bank tizimini 2020-2025 yy. isloh qilish strategiyasi asosida davlat banklarini xususiylashtirish boshlangan



Banklarda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi takomillashtirilgan



Makroprudensial siyosat vositalari, tizimli xatarlar tahlili va stress-testlash joriy qilingan



“To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonun (2022 y.) yangi tahrirda qabul qilinishi muammoli aktivlar bilan ishlashga qaratilgan tadbirlar samaradorligiga ijobiy ta‘sir qilgan



Valyuta kursi va narxlarning erkinlashtirilishi investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qilgan



Tavakkalchiliklarga asoslangan bank nazorati tizimi samarali joriy qilingan



Raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshirildi



Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish choralari jadallashtirilgan

Banklarni tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga oid FSAP tavsiyalari



Markaziy bank **mustaqilligini** yanada mustahkamlash



Markaziy bank normativ hujjatlarini **davlat ro'yxatidan o'tkazish** jarayonini takomillashtirish



Banklarni sanatsiya qilish mexanizmlarini to'liq joriy qilish



Banklarda **aktivlar** tasniflanishini **Bazel standarti** va 9-son MHXSGa muvofiq lashtirish



Bank guruhlaridan ustidan **konsolidatsiyalashgan nazoratni** joriy qilish



Kapital buferlarini joriy qilish



Iqlim bilan bog'liq moliyaviy xatarlarni boshqarish tizimini joriy qilish



Banklarda **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini** to'liq joriy qilish